

Xorazm Ma'mun akademiyasining buguni

Bugun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Bexzod Yuldashev va vitse-prezident Sirojiddin Mirzayevlar Xorazm Ma'mun akademiyasiga tashrif buyurdilar. Avvalo, Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limida amalga oshirilgan to'liq qayta ta'mirlash ishlari bilan tanishgan Bexzod Yuldashev va Sirojiddin Mirzayevlar Ma'mun akademiyasi olimlari tomonidan 2022-yil davomida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, kashfiyotlar va ishlanmalar borasidagi hisobotlarni tingladilar. So'ngra, Ma'mun akademiyasining bo'lim hamda laboratoriyalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bilan tanishdilar. Yosh ilmiy izlanuvchilar bilan muloqot bo'lib o'tdi. Unda Bexzod Yuldashev akademiyada amalga oshirilgan o'zgarishlar va yaratilgan imkoniyatlar haqida so'z yuritib: "Bunday zamonaviy bino va laboratoriya jihozlari kamdan-kam ilmiy tadqiqot muassasalarida mavjud, ulardan unumli foydalaning va yana-da katta marralarni ko'zlang" - deya ta'kidladi. Uchrashuvdan so'ng akademiya ilmiy xodimlari va doktorantlarining ilmiy nashrlari, yutuqlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirishdi. Ma'mun akademiyasi olimlarining bugungi yutuqlari, kashfiyotlari va izlanishlari bilan yaqindan tanishdilar.



